O'zbekistonda ta'lim xizmatlari bozorida miqdoriy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu esa, o'z navbatida sezilarli sifat o'zgarishlariga ham olib kelishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, bo'layotgan bu o'zgarishlar ta'lim xizmatlari bozorida bir qator tendensiyalarni yuzaga keltirmoqda. Birinchidan, ta'lim xizmatlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqib, targ'ib qilish ishlarini jadallashtirish orqali eng "iqtidorli" abituriyentlar uchun kurashda yengib chiqish bo'lsa, ikkinchidan, raqobat ko'lami global ta'lim makonida kuchayib borayotganligini hisobga olib, raqobatbardosh OTMlarga aylanish va xalqaro reytinglardan joy olishdek vazifalarni o'z oldilariga qo'ymoqdalar.

Shuningdek, jahonda ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanishi milliy oliy ta'lim muassasalari oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Bu esa, individual ta'lim dasturlari va umuman ta'lim muassasalarining xizmatlarini targ'ib qilish tabiati va usullariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday vaziyatda oliy ta'lim xizmatlarini targ'ib qilishning muhim vositasi bo'lgan veb-saytdan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim xizmatlari iste'molchilari uchun kerakli axborotlarni uzatish, yetkazish va tasavvurni shakllantirishning muhim raqamli kanali bo'lgan veb-sayt va uni samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy ta'lim xizmatlarini targ'ib qilish masalasini E.I.Bulin-Sokolova o'z tadqiqotlarida "oliy ta'limdagi marketingning asosiy yutuqlari ta'lim xizmatlarini reklama qilish va targ'ibot ishlarini olib borishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq ekanligidir" [1]. Hanover Research o'z izlanishlarida, "OTMlari yangi talabalarni jalb qilishda ochiq eshik kunlarini va shunga o'xshash boshqa tadbirlarga katta ahamiyat berayotganiga qaramay, raqamli texnologiyalar orqali oliy ta'lim xizmatlarini targ'ib qilish vositalari eng samarali ekanligini ko'rsatadi" [3]. Xorijiy mutaxassislardan yana biri C.Maslowskyning fikricha "veb-sayt oliy ta'lim muassasalari va ularning turli manfaatdor tomonlari o'rtasida marketing targ'ibotlari uchun juda muhim vosita bo'lib qolayotganligi, shu bilan birga ijtimoiy tarmoqlarda marketing (Social media marketing (SMM)) imkoniyatlaridan ham samarali foydalanishga e'tibor qaratishlari lozim" [4]. Bu tadqiqotchilarning fikrlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, bugungi axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan davrda oliy ta'lim xizmatlarini siljitish, targ'ib qilish (promotion)da raqamli texnologiyalardan ya'ni, internet marketing, raqamli marketing imkoniyatlarini keng foydalanish lozim.

D.G.Popov oliy ta'lim muassasasi brendini yaratish va targ'ib qilish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. D.G.Popov fikricha oliy ta'lim muassasasi brendini yaratish va targ'ib qilish vositalari sifatida quyidagilarni taklif qilgan: veb-sayt va interaktiv elektron ma'lumotlar. Abiturientlar, talabalar va boshqa manfaatdor guruhlar tomonidan oson foydalanish uchun nisbatan oddiy va intuitiv tushunarli interfeys va jalb etuvchan dizaynga ega zamonaviy OTM saytini yaratish va qo'llab-quvvatlash zarur. Aholi va xorijiy muloqot doiralarda portalga tashrif buyurishga qiziqish uyg'otish uchun sayt kontentini ta'lim yo'nalishlari, fakultetlar, tarmoqlar, yetakchi tadqiqotchilar, maxsus tadbirlar haqida va boshqa foydali ma'lumotlar bilan muntazam ravishda qo'llab-quvvatlash kerak [6].

D.G.Popov o'z tadqiqotida shuningdek, oliy ta'lim xizmatlarini targ'ib qilishda asosiy va qo'shimcha maqsadli muloqot doirasini shakllantirishni tavsiya etadi. Unda asosiy o'rinni institut sayti egallashi ilgari surilgan [6].

Oliy ta'lim xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida targ'ib qilish hamda oliy ta'lim xizmatlarini raqamlashtirishning dolzarb masalalari bo'yicha mahalliy olimlarimiz, yosh mutaxassislar ham o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Jumladan, S.S.Gulyamov, R.X.Ayupov, M.Q.Abdullaevlarning fikrlarga ko'ra, "...hozirgi davrda universitetlar va boshqa oliy ta'lim muassasalari oldida raqamli iqtisodiyotga o'tish davri vazifalari ko'ndalang bo'lib turibdi: oldindan ma'lum qilingan yo'nalishlar va ixtisosliklar bo'yicha bakalavr va magistrlar tayyorlash bilan birga dasturlar to'plamini kengaytirish va talabalar raqamli iqtisodiyot talab qiladigan ko'nikmalarni o'zlashtirishi va bilimlar olishi mumkin bo'lgan zarur sharoitlar yaratish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi" [2]. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, OTMlarini bitiruvchilari nafaqat o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimlarni puxta egallagan bo'lishi, balki raqamli iqtisodiyot talab qiladigan ko'nikmalarni o'zlashtirishi va bilimlar olishi uchun oliy ta'lim muassasalari o'z e'tiborlarini qaratishlari lozimligi aytib o'tilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasidagi OTMlarining rasmiy veb-saytlariga tashrif buyuruvchilar soni bo'yicha reytingini tadqiq qilishda statistik ma'lumotlarni tahlil qilishda statistik tahlil, oliy ta'lim muassasalari veb-saytlarining sifat ko'rsatkichlari tavsifi, oliy ta'lim muassasasining veb-saytini yaratishning afzalliklarini yoritishda izimli tahlil, qiyosiy va vaziyatli tahlil, oliy ta'lim muassasalari veb-saytining sifatini baholash ko'rsatkichlari abstrakt-mantiqiy fikrlash, integratsiyalashgan yondashuv asosida yoritib berilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori asosida oliy ta'lim muassasalarida axborot xizmati tashkil etilib, matbuot kotibi lavozimi joriy etildi. Barcha oliy ta'lim muassasalarida axborot xizmatining (matbuot kotibining) nizomlari ishlab chiqildi. Oliy ta'lim muassasalarining axborot xizmatining asosiy vazifalaridan ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik qilish, axborot xabarlarini (matbuot uchun axborotlar, byulletenlar va shu kabilarni) tarqatish, ommaviy tadbirlarni tashkil etish, axborotni oliy ta'lim muassasasining veb-saytlariga tezkor joylashtirish va o'z vaqtida yangilab borish, internet tarmog'idagi veb-resurslarni, shu jumladan, ijtimoiy va mobil tarmoqlarni rivojlantirish hisoblanadi.

Demak, bugungi kunda oliy ta'lim xizmatlarini targ'ib qilishda oliy ta'lim muassasalari veb-saytlarining o'rni va roli juda katta. Bevosita oliy ta'lim xizmatlarini targ'ib qilish veb-saytning asosiy vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun oliy ta'lim xizmatlarini targ'ib qilishda veb-sayt samaradorligini baholash muhimdir.

Oliy ta'lim muassasalarining veb-saytini o'rganishda quyidagi mezonlarga e'tibor qaratiladi:

- Veb-saytning dizayni;
- Veb-saytning navigatsiyasi;

- Veb-saytning interaktivligi;
- Veb-saytning kontenti;
- Veb-saytning Internet koʻrinishi.

Sayt – talabalarni, kasbiy qayta tayyorlash dasturlari tinglovchilarini jalb qilish, oʻquv rejalar haqida maʼlumot berish, talabalar, professor-oʻqituvchilar va abiturentlar bilan muloqot qilish uchun zarur vositadir (1-jadval). Sayt zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda oliy taʼlim muassasasining taʼlim imijiga urgʻu beradi va doimo dolzarb maʼlumotlarni targʻib qiladi. Barcha oliy taʼlim muassasasi rahbariyati arzon, tez va sifatli veb-sayt yaratishga intiladi. Lekin bu boradagi asosiy muammo oliy taʼlim veb-saytining sifatini taʼminlashdan iborat.

1-jadval: Oliy taʼlim muassasasining veb-saytini yaratishning afzalliklari

| Afzalliklar | Afzalliklar mazmuni |
|---|---|
| Axborotni qayta ishlash va yigʻish vositasi | Taʼlim sifati va samaradorligi uchun zarur boʻlgan maʼlumotlarni (oliy taʼlim muassasasi tadbirlari, madaniy hayoti, ilmiy nashrlar, uslubiy adabiyotlar va boshqalar) yigʻish va kerakli auditoriyaga yetkazish |
| Kibermakonda vakillik (nomzodlik) | Abiturentlar uchun Internet orqali oliy taʼlim muassasasini qidirish va solishtirish qulay boʻlishi lozim. Abiturentlarni jalb qilish uchun foydalanish xizmatlar va resurslarni joylashtirish lozim. Talabalar, abiturentlar va ularning ota-onalari va boshqalar oliy taʼlim muassasasining oʻquv kurslari, dasturlari, qabul kvotalari va boshqa maʼlumotlarni oʻz vaqtida olishi muhim hisoblanadi. |
| Raqobat ustunligini taʼminlash | Taʼlim texnologiyalarining rivojlanishi davlat oliy taʼlim muassasalari bilan xususiy oliy taʼlim muassasalari, shuningdek, oʻquv markazlari oʻrtasida raqobatni keskinlashtirmoqda. IT-texnologiyalaridan foydalanmaydigan, Internet qidiruv tizimini samarali ishlatmaydigan, raqamli texnologiyalarjan foydalanib oʻz xizmatlarini targʻib qilmaydigan oliy taʼlim muassasalari raqobat kurashida yengiladi. |
| Oliy taʼlim muassasasi ishini optimallashtirish | Oliy taʼlim muassasasi, uning filiallari, boshqa taʼlim muassasalari bilan aloqalarini optimallashtirish tizimini yaratish, masofaviy taʼlim tizimini rivojlantirish va h.k. imkonini beradi. |
| Targʻib qilish vositasi | Keng auditoriyani qamrab oladigan va u yerdan doimiy ravishda oliy taʼlim muassasasi haqida maʼlumot olish imkonini beruvchi arzon vosita hisoblanadi. |

Saytning sifati asosan veb-dizanerning malakasi bilan belgilanadi. Veb-dizayn sohasida mamlakatimizda kadrlarning professional tayyorgarligi hali ham mavjud emas. Sayt sifati boʻyicha nazariy ishlar hali ham bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Saytlarni loyihalash, yaratish, ishlatish yoki taqqoslash boʻyicha aniq tajribali mutaxassislar yetarli emas. Koʻpincha veb-dizaynerlar saytni texnik jihatdan qanday yaratishni bilishadi. Ammo, qanday mazmundagi axborotlarni, qachon kerakligi (potensial isteʼmolchilar ehtiyojlari), kimga (maqsadli auditoriya), qay yoʻsinda targʻib qilishni bilishmaydi.

OTMlarining xalqaro (QR) reytingiga kirishi uchun bir nechta koʻrsatkichlarining bajarilishiga eʼtibor berishlari kerak. Birinchi oʻrinda har qanday OTMlarining akademik obroʻsi (40%) eng yuqori ball olish imkonini beradi. Mazkur koʻrsatkichni aniqlashda dunyodagi OTMlarida faoliyat koʻrsatayotgan 100 000 dan ortiq mutaxassislarning reytingga kirmoqchi boʻlgan talabgor OTMdagi oʻqitish va ilmiy tadqiqot ishlarining sifati toʻgʻrisidagi fikrlari oʻrganiladi. Mutaxassislar asosan OTMning veb-saytidan va xalqaro bazalardagi axborotlardan maʼlumotlarga ega boʻladilar.

2-jadval: Oʻzbekiston Respublikasidagi OTMlarining rasmiy veb-saytlariga 1 oy davomida (21.12.2023-20.01.2024) 400 dan oshgan tashrif buyuruvchilar soni boʻyicha reytingi1

| Oʻrin | OTM veb-saytlari nomi | Tashrif buyuruvchilar | Koʻrishlar | 1 tashrif buyuruvchining oʻrtacha koʻrishlar soni |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Toshkent Axborot Texnologiyalari Uuniversiteti | 226 590 | 916 200 | 4,0 |
| 2 | Samarqand davlat tibbiyot universiteti | 150 762 | 3 135 033 | 20,8 |
| 3 | Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti | 133 559 | 1 016 886 | 7,6 |

1 www.uz maʼlumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

| O'rin | OTM veb-saytlari nomi | Tashrif buyuruvchilar | Ko'rishlar | 1 tashrif buyuruvchining o'rtacha ko'rishlar soni |
|---|---|---|---|---|
| 4 | Toshkent tibbiyot akademiyasi | 87 266 | 2 069 606 | 23,7 |
| 5 | Samarqand Davlat universiteti rasmiy sayti | 62 855 | 125 045 | 2,0 |
| 6 | Toshkent moliya instituti sayti | 50 856 | 120 515 | 2,4 |
| 7 | A.Qodiriy nomidagi JDPU | 47 330 | 97 800 | 2,1 |
| 8 | Navoiy davlat pedagogika instituti | 37 388 | 81 197 | 2,2 |
| 9 | Buxoro davlat universiteti | 34 946 | 89 180 | 2,6 |
| 10 | Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti | 32 960 | 84 511 | 2,6 |
| 11 | O'zbekiston Milliy universiteti | 27 600 | 70 987 | 2,6 |
| 12 | Urganch Davlat Universiteti | 26 453 | 503 825 | 19,0 |
| 13 | TDIU Samarqand filiali | 25 681 | 40 675 | 1,6 |
| 14 | Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti | 24 099 | 48 080 | 2,0 |
| 15 | Andijon davlat universiteti | 23 263 | 43 965 | 1,9 |
| 16 | Toshkent davlat transport universiteti | 22 243 | 130 952 | 5,9 |
| 17 | Nizomiy nomidagi TDPU | 21 481 | 195 855 | 9,1 |
| 18 | Namangan muhandislik-qurilish instituti | 21 472 | 40 591 | 1,9 |
| 19 | Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti | 19 194 | 42 461 | 2,2 |
| 20 | Rossiya Davlat neft va gaz Universitetining filiali | 17 577 | 35 808 | 2,0 |
| 21 | Toshkent davlat iktisodiyot universiteti | 14 666 | 28 084 | 1,9 |
| 22 | TATU Farg'ona filiali rasmiy sayti | 13 930 | 531 851 | 38,2 |
| 23 | Nukus Davlat Pedagogika Instituti | 11 724 | 22 060 | 1,9 |
| 24 | TATU Urganch filiali | 11 687 | 254 799 | 21,8 |
| 25 | O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti | 10 925 | 19 292 | 1,8 |
| 26 | Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti davlat universiteti | 10 696 | 26 949 | 2,5 |
| 27 | Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti | 10 562 | 28 641 | 2,7 |
| 28 | Andijon davlat tibbiyot instituti | 10 524 | 20 440 | 1,9 |
| 29 | Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti | 9 739 | 32 030 | 3,3 |
| 30 | O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti | 7 193 | 16 611 | 2,3 |
| 31 | Qarshi davlat universiteti | 7 096 | 30 386 | 4,3 |
| 32 | EMU University | 6 964 | 15 196 | 2,2 |
| 33 | Toshkent davlat stomatologiya instituti | 6 355 | 40 104 | 6,3 |
| 34 | Islom Karimov nomidagi TDTU | 6 206 | 11 881 | 1,9 |
| 35 | Guliston davlat universiteti | 5 718 | 15 896 | 2,8 |
| 36 | Jizzax politexnika instituti | 5 700 | 10 443 | 1,8 |
| 37 | Geologiya fanlari universiteti | 5 377 | 12 543 | 2,3 |
| 38 | Toshkent farmasevtika instituti | 4 889 | 6 895 | 1,4 |
| 39 | O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti | 4 526 | 8 777 | 1,9 |
| 40 | Samarqand davlat chet tillar instituti | 4 458 | 11 062 | 2,5 |
| 41 | Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti | 4 387 | 21 173 | 4,8 |
| 42 | Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti | 4 315 | 11 575 | 2,7 |
| 43 | Namangan davlat universiteti | 4 306 | 10 807 | 2,5 |



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

| O‘rin | OTM veb-saytlari nomi | Tashrif buyuruvchilar | Ko‘rishlar | 1 tashrif buyuruvchining o‘rtacha ko‘rishlar soni |
|---|---|---|---|---|
| 44 | Qarshi Muhandislik iqtisodiyot instituti rasmiy sayti | 4 018 | 22 024 | 5,5 |
| 45 | O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali | 2 914 | 4 665 | 1,6 |
| 46 | Andijanskiy mashinostroitelnыy institut | 2 749 | 6 455 | 2,3 |
| 47 | Farg‘ona davlat universiteti | 2 383 | 8 264 | 3,5 |
| 48 | Shahrisabz davlat pedagogika instituti | 2 375 | 5 899 | 2,5 |
| 49 | Farg‘ona politexnika instituti rasmiy sayti | 2 127 | 8 605 | 4,0 |
| 50 | TATU Nukus filiali | 2 003 | 3 587 | 1,8 |
| 51 | O‘zbekiston milliy universitetining Jizzax filiali | 1 991 | 4 588 | 2,3 |
| 52 | Termiz muhandislik-texnologiya instituti | 1 887 | 3 788 | 2,0 |
| 53 | O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal instituti | 1 870 | 5 240 | 2,8 |
| 54 | Toshkent davlat agrar universiteti | 1 712 | 5 367 | 3,1 |
| 55 | Urganch davlat pedagogika instituti | 1 708 | 6 981 | 4,1 |
| 56 | Samarqand davlat universiteti Urgut filiali | 1 567 | 3 261 | 2,1 |
| 57 | Islom Karimov nomidagi TDTU Qo‘qon filiali | 1 456 | 2 025 | 1,4 |
| 58 | Guliston davlat pedagogika instituti | 1 313 | 3 317 | 2,5 |
| 59 | Toshkent davlat pedagogika universiteti Termiz filiali | 1 117 | 1 433 | 1,3 |
| 60 | “TIQXMMI” MTU Buxoro filiali | 1 001 | 5 455 | 5,4 |
| 61 | Toshkent shahridagi Inxa Universiteti | 923 | 1 449 | 1,6 |
| 62 | Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti | 871 | 2 097 | 2,4 |
| 63 | O‘ZDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san’ati instituti | 514 | 794 | 1,5 |
| 64 | Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti | 472 | 1 078 | 2,3 |
| 65 | Toshkentdagi S.A.Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya universiteti | 461 | 1 158 | 2,5 |
| 66 | Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti | 428 | 1 257 | 2,9 |
| 67 | Samarqand Iqisodiyot va Servis instituti | 417 | 1 138 | 2,7 |

Oliy ta’lim muassasalarining imiji ko‘plab ko‘rsatkichlar, omillar, tarkibiy qismlardan iborat. Ammo ularning asosini uning ish reputatsiyasi tashkil etadi. Professional tarzda yaratilgan veb-saytning mavjudligi ushbu oliy ta’lim muassasasining o‘zining potensial iste’molchilari, ya’ni, saytga tashrif buyuruvchilarni hurmat qilishidan dolalat beradi. Tashrif buyuruvchilar saytni Internetdagi kalit so‘zlar orqali tezda topishsa, sahifalar tezda yuklansa, saytdan tezda kerakli dolzarb ma’lumotlar topilsa, saytda taqdim etilgan ma’lumotlar aniq va to‘liq bo‘lsa, ma’lumotlar tezda yangilanib borsa, tashrif buyuruvchilarni oliy ta’lim xizmatlari haqidagi qiziqarli, e’tiborni dalb qila oladigan targ‘ib qilish murojaatlari bo‘lsa sayt samarali deb baholash mumkin. Oliy ta’lim muasssasalari veb-saytlarining sifat ko‘rsatkichlari tavsifi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval: Oliy ta’lim muassasalari veb-saytlarining sifat ko‘rsatkichlari tavsifi[2]

| Ko‘rsatkichlar | Mazmuni |
|---|---|
| Dizayn | Saytning tashqi ko‘rinishi, vizual dizayni, estetik qiymatini oshirishni tavsiflaydi. Baholash mezonlari – ranglar, yuqori sifat, korporativ identifikatsiyani birlashtirish va boshqalar. |
| Tezkorlik (interaktivlik) | Tashrifchining harakatlariga qarab, vositalar to‘plami (forumlar, mehmonlar kitoblari, so‘rovlar va boshqalar) orqali foydalanuvchi bilan o‘zaro aloqa darajasini tavsiflaydi. Tashrif buyuruvchilar o‘zlarini sayt mazmunini shakllantirish ishtirokchilari sifatida his qilishlari kerak. |

2 Пителинский К.В. О связи имиджа вуза и качества его сайта // В сб. докладов XI открытой научной конференции МГТУ “СТАНКИН” и “Учебно-научного Центра Математического моделирования МГТУ “СТАНКИН” и ИММ РАН” под ред. О.А. Казакова Москва 23-25 апреля 2008г, МГТУ “СТАНКИН”. С. 110113.

| | |
|---|---|
| Ma'lumot beruvchanlik | Axborotning тщlıыligi, ishonchliligi va dolzarbligi foydalanuvchilarning resursga munosabatini shakllantiradi. Saytga tashrif buyuruvchilar quyidagilarni olishi kerak:<br>- abiturentlar uchun axborotlar (fakultetlar va ta'lim yo'nalishlari haqida ma'lumotlar, qabul kvotalari, oldingi yil qabul natijalari statistikasi, to'lov-kontrakt summasi, to'lov-kontraktni to'lash qoidalari, kredit-modul tizimi, talabalar turar joylari haqidagi ma'lumotlar);<br>- talabalar uchun axborotlar (dars jadvallari, o'quv materiallar, professor-o'qituvchilar haqida ma'lumotlar);<br>- oliy ta'lim muassasasining madaniy hayoti (oliy ta'lim muassasasining ijodiy va sport tadbirlari haqidagi ma'lumotlar);<br>- oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari haqidagi axborotlar (konferensiyalar, seminarlar, ilmiy tadqiqotlar);<br>- umumiy axborotlar (OTM vizitkasi) – ta'lim muassasasining tarixi, bog'lanish uchun aloqa raqamlari);<br>- OTM yangiliklarini yangilab borish va boshqalar. |
| Qulaylik | Yangi tashrif buyuruvchilarni jalb qilish uchun qulay interfeys, ma'lumotlarni oson qidiruvi va topilishini ta'minlash. Ma'lumotlarni shunday joylashtirish kerakki, tashrif buyuruvchi keyingi sahifada uni nima kutayotgan faollashtirishgan havola orqali topib olishi lozim. Qisqa, tushunarli shrift va matn formatini shakllantirish muhim. |
| Funksionallik | Ular dastur kodining sifati (ixchamlik va optimal hajm), texnologiyalardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi va saytga tashrif buyuruvchining apparat va dasturiy platformasidan saytning o'zgarmasligi bilan belgilanadi. |

Veb-saytlarni baholash bo'yicha mutaxassislar ham veb-dizaynerlar kabi bir qator muammolarga duch kelishmoqda. Chunki veb-saytlarni baholashning uslubiy (metodikasi) asoslari to'liq shakllanmagan. Bu esa veb-saytlarning samaradorligi va sifatini baholash konsepsiyasini ishlab chiqish dolzarbligini bildiradi. Saytning ish faoliyatini baholash, odatda, uning ishtiroki va mavjud ma'lumotlarga bo'lgan talab (foydaliligi, o'ziga xosligi va olingan ma'lumotlarning miqdori) orqali amalga oshiriladi. Saytga tashrif buyurish, saytga muntazam qaytish, qaytish chastotasi va dinamikasi sayt samaradorligini baholashning eng muhim mezonlari hisobladi. Saytga qaytish uchun faqat ma'lumotlar yetarli va yangilanib turishi muhim. Bugungi kunda shunga qaramasdan, mualliflar tomonidan sayt samaradorligini baholash mezonlari taklif etilgan.

Oliy ta'lim muassasalari veb-saytining sifatini baholash ko'rsatkichlari:

1. Dizayin:
- Uslubiy birligi;
- Individuallik (yagonalik);
- Matn va tasvir sifati;
- Ranglar kombinatsiyasi;
2. Tezkorlik (interaktivlik):
- Onlayn chat bot yoki tezkor aloqa xizmati yo'lga qo'yilganligi;
- Yangilanish chastotasi.
3. Ma'lumot beruvchanlik:
- Abiturentlar uchun ma'lumotlar;
- Talabalar uchun ma'lumotlar;
- OTMni madaniy hayoti;
- Yangiliklar muntazamligi.
4. Qulaylik:
- Navigatsiyani amalga oshirish;
- Shrift va shakllar.
5. Funksionallik:
- Kross-platformalik;
- Qidiruv tizimi tezligi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim muassasalarida veb-saytni yaratishda eng ko'p uchraydigan muhim xatoliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Saytda eskirgan ma'lumotlarning mavjudligi.
2. Maxsus effektlar bilan saytning haddan tashqari yuklanishi.
3. Tugallanmagan saytni Internetga joylashtirish.
4. Bir nechta sahifalardan yirik oliy ta'lim muassasasining saytini yaratish.

Olit ta'lim muassasalari saytida uning faoliyati mufassal tarzda tavsiflashi lozim. Ayniqsa, "Xorijiy abiturientga", "Xalqaro almashinuv" va "Ingliz tilidagi ta'lim dasturlari" bo'limlari batafsil yoritilishi kerak. Brend-buk dizaynni qo'llagan holda umumiy ramzlar (logotip, universitet uslubi elementlari) yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Sayt, barcha poligrafiya materiallari va boshqalar albatta umumiy uslubda, bir xil qoidalar bo'yicha va bir xil rang sxemalarida ishlab chiqilishi lozim, bu brend taniqligini oshirishga xizmat qiladi.

"O'qituvchilar" bo'limida OTM yetakchi professor-o'qituvchilarining "ish jarayonidagi fotosessiyasi" va ingliz tilida yozilgan tarjimai hollarini joylashtirish lozim. Sayt oliy ta'lim muassasasining internetdagi yuzi bo'lib, maqsadli muloqot doiralari bilan bevosita aloqa qilishning eng oddiy vositasi bo'lishi – abiturient yoki talaba so'raydigan barcha ma'lumotlardan iborat bo'lishi lozim. Bundan tashqari, sayt innovatsiyalarni aks ettirishi, zamon bilan hamnafas bo'lishi, saytni o'z vaqtida yangilab turish va ma'lumotlarni to'g'ri joylashtirish orqali kafedralar mutaxassislarining professionalligini aks ettirishi kerak. Poligrafiya – maqsadli muloqot doiralari uchun juda muhim axborot manbayidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Булин-Соколова Е.И. Информационно-коммуникативные технологии в системе общего образования [Текст] // –М.: ФГНУ ИОО, –2004. –7,5 уч.-изд.
2. Гулямов С.С., Аюбов Р.Х., Абдуллаев М.Қ. Рақамли иқтисодиёт – кадрлар тайёрлашнинг долзарб йўналишлари. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнал, №1, 2020 й. –186-198 бетлар.
3. Hanover Research (2014). Trends in Higher Education Marketing, Recruitment, and Technology [ebook].
4. Maslowsky, C. (2013). Five Ways Higher Education Marketing Will Change in 10 Years. The EvoLLLution. Retrieved 20 July 2016.
5. Пителинский К.В. О связи имиджа вуза и качества его сайта // В сб. докладов XI открытой научной конференции МГТУ "СТАНКИН" и "Учебно-научного Центра Математического моделирования МГТУ "СТАНКИН" и ИММ РАН" под ред. О.А. Казакова Москва 23-25 апреля 2008г, МГТУ "СТАНКИН". С. 110113.
6. Попов Д.Г. Оценка эффективности бренда высшего учебного заведения в условиях интернационализации высшего образования. Управленческое консультирование. –№ 11. –2014. –82-90 с.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 1**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.